

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**IX RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

OKTYABR, 2025

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**IX RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, oktyabr

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 9-son (oktyabr, 2025-yil). – 71 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 23-oktyabr

Mas'ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

KIMYO FANLARI

Narmanova Feruza, Ibragimov Aziz, Turayev Xayit, Toirova Gulshoda

Zn(II) NING 4-AMINOBENZOY KISLOTASI BILAN $\{[Zn(H_2O)_2(SO_4)_2](C_7H_7NO_2)_2\}_n$

KOMPLEKS BIRIKMASI SINTEZI 5-9

TEXNIKA FANLARI

Кузибоев Шухназар

РАЗРАБОТКА КОМПОЗИЦИОННЫХ СОРБЕНТОВ НА ОСНОВЕ ЖЕЛЕЗОСОДЕРЖАЩИХ
ОТХОДОВ ДЛЯ ОЧИСТКИ СТОЧНЫХ ВОД ОТ НЕФТЕПРОДУКТОВ 10-16

Mirjalolova Nargiza

MULTIMEDIALI ALOQA TARMOQLARIDA HUYUMLARNI ANIQLASHNING ILG'OR

TEKNOLOGIYALARI 17-23

TARIX FANLARI

Jo'raboyev Ulug'bek

TURKISTON ASSRDA SUD TIZIMI FAOLIYATI 24-26

IQTISODIYOT FANLARI

Суюнова Саодат

РОЛЬ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ В РАЗВИТИИ ЭКОТУРИЗМА 27-32

Ashurova Sitora

ENHANCING INFLATION FORECASTING THROUGH HYBRID ECONOMETRIC AND MACHINE
LEARNING APPROACHES IN EMERGING MARKETS 33-36

FALSAFA FANLARI

Xoshimov Hakimjon

O'ZBEK JAMIYATIDA YOSHLARNING IQTISODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING

IJTIMOIIY MEKANIZMLARI 37-42

FILOLOGIYA FANLARI

Norbekova Gulrux

INGLIZ TILIDA AFSUNGA OID BIRLIKLARNING KONSEPTUAL ASOSLARI 43-46

Abdurahmonova Nilufar

LEKSIKOGRAFIYADA TERMINOLOGIK LUG'ATLARNING O'RNI VA AHAMIYATI 47-49

YURIDIK FANLAR

Каюмова Малика

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРЕСТУПНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ:
ВЫЗОВЫ ДЛЯ УГОЛОВНОГО ПРАВА 50-53

PEDAGOGIKA FANLARI

Abdullayeva Ziroatxon

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH JARAYONIDA TALABALARDA
REFLEKTIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY VAZIFALARI VA PEDAGOGIK
IMKONIYATLARINI ANIQLASH 54-56

Shermatova Saxobaxon

KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA OLIY TA'LIMDA INDUKTIV VA DEDUKTIV FIKRLASH
JARAYONLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY KONSEPSIYASINI
ASOSLASH 57-59

Baratova Yulduz

TARBIYACHILARDA KOMMUNIKATIV SALOHİYATNI SHAKLLANTIRISHNING METODIK
ASOSLARI

60-65

TIBBIYOT FANLARI

Fayziyeva Nozima

YOSHLARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING TIBBIY-PEDAGOGIK
ASOSLARI

66-70

PEDAGOGIKA FANLAR

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH JARAYONIDA TALABALARDA REFLEKTIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY VAZIFALARI VA PEDAGOGIK IMKONIYATLARINI ANIQLASH

Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Email: Z.q.abdullayeva@pf.fdu.uz

Tel: +998908674233

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda reflektiv tafakkurni rivojlantirishning mazmuni, vazifalari va pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Reflektiv tafakkur talabalarning o'z o'quv faoliyatini tahlil etish, o'zini baholash va o'z ustida ishlash qobiliyatini shakllantirishda muhim omil sifatida qaraladi. Shuningdek, muammoli o'qitish, loyihaviy va interfaol texnologiyalar reflektiv jarayonlarni faollashtirishdagi samaradorligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: reflektiv tafakkur, pedagogik texnologiyalar, refleksiya, o'zini baholash, talaba, interfaol metodlar, reflektiv faoliyat.

DETERMINING THE MAIN TASKS AND PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES OF DEVELOPING REFLECTIVE THINKING IN STUDENTS IN THE PROCESS OF APPLICATION OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

Abdullayeva Ziroatkxon Qurbonovna

Independent researcher at Fergana State University

Annotation This article analyzes the content, tasks and pedagogical opportunities of developing reflective thinking in students based on modern pedagogical technologies. Reflective thinking is considered an important factor in forming students' ability to analyze their own educational activities, self-assessment and work on themselves. The effectiveness of problem-based learning, project-based and interactive technologies in activating reflective processes is also highlighted.

Key words: reflective thinking, pedagogical technologies, reflection, self-assessment, student, interactive methods, reflective activity.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymdif-y2025v1i9/n11>

Bugungi kunda ta'lim jarayonining asosiy maqsadi shaxsni faollikka, mustaqil fikrlashga va o'z bilim hamda faoliyatini ob'yektiv baholashga o'rgatishdan iborat. Shu sababli, zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida reflektiv tafakkurni rivojlantirish masalasi alohida e'tibor markazida turibdi. Reflektiv tafakkur talabalarga o'z o'quv faoliyatini ongli tahlil etish, o'zini baholash, o'z faoliyati natijalaridan xulosa chiqarish va kelgusi bosqichdagi harakatlarini rejalashtirish imkonini beradi.

Refleksiya inson tafakkurining ichki mexanizmlarini faollashtiruvchi, shaxsiy o'sish va kasbiy shakllanishni ta'minlovchi intellektual jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, reflektiv tafakkurni rivojlantirish nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki talabaning ijtimoiy-madaniy muhitda faol sub'yekt sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Bu jarayon

shaxsning o'z-o'zini anglash, o'z xatti-harakatlariga baho berish, ularni takomillashtirish va natijada uzluksiz o'zgarish hamda o'sishga intilish jarayonini ifodalaydi.

Reflektiv tafakkur bu shaxsning o'z fikrlari, qarorlari, xatti-harakatlari hamda o'quv faoliyati jarayonini ongli tarzda kuzatish, tahlil qilish, baholash va takomillashtirish qobiliyatidir. Ushbu sifat ta'lim sub'yekting o'z bilim faoliyatiga mas'uliyat bilan yondashish, o'zlashtirish darajasini nazorat qilish va o'zini rivojlantirishga intilishiga asos bo'ladi.

Zamonaviy pedagogik paradigmalarda konstruktivizm, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv hamda kompetensiyaviy ta'lim modelida refleksiya ta'lim jarayonining tarkibiy va nazoratlovchi komponenti sifatida qaraladi. Chunki u nafaqat bilimlarni o'zlashtirish, balki o'quvchi yoki talabada metakognitiv (o'z fikrlash jarayonini boshqarish) qobiliyatni shakllantiradi.

Reflektiv tafakkurni rivojlantirish natijasida:

mustaqil o'qish va o'zini o'qitish motivlari kuchayadi;

faoliyatni tahlil qilish va baholash ko'nikmalari shakllanadi;

tanqidiy va ijodiy fikrlash malakalari rivojlanadi;

shaxsiy va kasbiy o'sish uchun zarur bo'lgan o'zini baholash madaniyati shakllanadi.

Demak, reflektiv tafakkur ta'limning sifat va samaradorlik ko'rsatkichlarini oshiruvchi hamda o'zini rivojlantiruvchi faol shaxsni shakllantiruvchi muhim omildir.

Pedagogik texnologiyalar bu o'qitish jarayonini tizimli, ilmiy asoslangan va natijaga yo'naltirilgan tarzda tashkil etuvchi metodlar, vositalar va jarayonlar majmuasidir. Ularning samarali qo'llanilishi talabaning faolligini, mustaqil fikrlashini hamda reflektiv faoliyatini faollashtiradi.

Quyidagi texnologiyalar reflektiv tafakkurni rivojlantirishda eng samarali hisoblanadi:

Muammoli o'qitish texnologiyasi talabalarda intellektual izlanish, tahliliy fikrlash va muammoni mustaqil hal qilish malakasini rivojlantiradi. Talaba muammoli vaziyatni tahlil etish orqali o'z fikrini asoslash, qarorini himoya qilish va refleksiya qilishni o'rganadi.

Loyihaviy o'qitish texnologiyasi talabaning faoliyatini rejalashtirish, amalga oshirish, natijalarni baholash va o'z ustida ishlash jarayonini o'z ichiga olgan texnologiya bo'lib, unda reflektiv yondashuv tabiiy tarzda namoyon bo'ladi.

Interfaol o'qitish usullari ("Maqsadlar daraxti", "Portfolio", "Tushunchalar xaritasi", "Reflective Blog", "Think-Pair-Share", "Self-assessment checklist", "Role play" (Tanqidiy do'stlar), "Pazl", "Debate", "Tanqidiy do'stlar", "O'zaro baholash", "Assessment") muloqotga, tahlilga, o'zaro fikr almashuvga asoslangan bo'lib, talabalarda o'z fikrini baholash va takomillashtirishga nisbatan reflektiv ko'nikmalarni shakllantiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) o'quv jarayonini shaffof, nazoratli va tahliliy qilish imkonini yaratadi. AKT yordamida talaba o'z faoliyatining natijalarini kuzatish, baholash va reflektiv tahlilni amalga oshirish imkoniga ega bo'ladi.

Reflektiv tafakkurni shakllantirish ta'lim jarayonida izchil amalga oshirilishi lozim bo'lgan metodik tizimni talab qiladi. Ushbu jarayon quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

1. Talabalarni o'z o'quv faoliyatini muntazam tahlil qilish, natijalarni baholash va o'z ustida ishlashga o'rgatish.

2. O'z fikrini asoslash, dalillarni tahlil etish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

3. O'z muvaffaqiyati va kamchiliklarini anglash, ularni bartaraf etishga yo'naltirilgan reflektiv qarorlar qabul qilish.

4. O'z-o'zini baholash madaniyatini shakllantirish hamda kasbiy o'sishga yo'naltirish.

5. Reflektiv tahlil asosida ijodiy fikrlash, innovatsion g'oyalar yaratish va ularni amaliyotda qo'llashga rag'batlantirish.

Bu vazifalarning har biri talabaning ichki intellektual faolligini qo'zg'atadi va uni o'z ta'lim jarayonining sub'yektiga aylantiradi.

Reflektiv tafakkurni rivojlantirishda o'qituvchining boshqaruvchanligi, pedagogik muhitning qulayligi va interfaol muloqotning samarali tashkil etilishi muhim o'rin tutadi. Quyidagi pedagogik imkoniyatlar bu jarayonda ijobiy natija beradi:

Reflektiv kundaliklar (portfolio) yuritish talabalarga o'z o'quv faoliyatini bosqichma-bosqich tahlil etish, o'z yutuq va kamchiliklarini ko'rish imkonini beradi.

Reflektiv savolnomalar o'z fikrini baholash va ta'lim jarayonini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'zini baholash jadvallari talabalarga yakuniy natijalar oldidan o'z bilim darajasini aniqlashga yordam beradi.

Metakognitiv yondashuv talaba va o'qituvchi o'rtasida reflektiv muloqotni yo'lga qo'yadi, bunda shaxsiy o'sishning tahliliy mexanizmlari shakllanadi.

Mentorlik va tutorlik tizimlari talabaning reflektiv jarayonlarini yo'naltiruvchi va nazoratlovchi mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga oqilona integratsiya qilish reflektiv tafakkurni rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Bu jarayon orqali talaba o'z ta'lim faoliyatining passiv ishtirokchisi emas, balki faol sub'yekti sifatida shakllanadi. Natijada unda mustaqil o'rganish, o'z fikrini tahlil qilish, natijalarni baholash va o'z ustida ishlashga bo'lgan ehtiyoj ortadi.

Reflektiv tafakkur shaxsning intellektual, ijodiy va kasbiy rivojlanishining asosi bo'lib, ta'lim tizimida uni shakllantirish zamonaviy o'qitish metodikalarining muhim strategik yo'nalishidir. Shunday qilib, refleksiya insonni o'z hayoti va faoliyatining muallifiga aylantiruvchi intellektual mexanizm sifatida ta'limning sifat va samaradorlik ko'rsatkichlarini yangi bosqichga olib chiqadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Dewey J. How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process. — Boston: D.C. Heath & Co., 1933. — 301 p.
2. Schön D. A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. — New York: Basic Books, 1983. — 374 p.
3. Vygotsky L. S. Thought and Language. — Cambridge, MA: The MIT Press, 1986. — 287 p.
4. Kolb D. A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. — Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984. — 256 p.
5. Marzano R. J. The Art and Science of Teaching: A Comprehensive Framework for Effective Instruction. — Alexandria, VA: ASCD, 2007. — 221 p.
6. Brookfield S. D. Becoming a Critically Reflective Teacher. — San Francisco: Jossey-Bass, 1995. — 296 p.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

IX RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, oktyabr

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 9-son (oktyabr, 2025-yil). – 71 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 23-oktyabr

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.